

QAHRAMON XARAKTERINI OCHISHDA PORTRETDAN FOYDALANISH**MAHORATI****THE SKILL OF USING PORTRAITURE TO REVEAL THE CHARACTER OF THE HERO****УМЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАТЬ ПОРТРЕТ ДЛЯ РАСКРЫТИЯ ХАРАКТЕРА ГЕРОЯ**

Odiljonova Xursandoy Murodil qizi

Farg'ona davlat universiteti, talaba

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18810846>

Annotatsiya: Mazkur maqolada Asad Dilmurodning “Mahmud Torobiy” romanida portret tasvirining qahramon xarakterini ochishdagi o’rni tahlil qilinadi. Muallif portret orqali obrazlarning tashqi qiyofasi bilan birga ularning ichki kechinmalari, ruhiy holati va jamiyatdagi o’rnini yoritadi. Portret tasvirlar asar badiiyligini kuchaytirib, o’quvchini tarixiy davr muhitiga olib kirishda muhim vosita bo’lib xizmat qilishi asoslab beriladi.

Abstract: This article analyzes the role of portrait depiction in revealing the character of the hero in Asad Dilmurod’s novel “Mahmud Torobiy”. The author demonstrates that through portrait descriptions, along with the external appearance of the characters, their inner experiences, psychological state, and place in society are revealed. It is substantiated that portrait depictions enhance the artistic quality of the work and serve as an important means of immersing the reader in the atmosphere of the historical period.

Аннотация: В данной статье анализируется роль портретного изображения в раскрытии характера героя в романе Асада Дилмурода “Махмуд Тараби”. Автор показывает, что с помощью портрета наряду с внешним обликом образов раскрываются их внутренние переживания, духовное состояние и место в обществе. Обосновывается, что портретные изображения усиливают художественность произведения и служат важным средством погружения читателя в атмосферу исторической эпохи.

Kalit so’zlar:

Roman, portret, obraz, qahramon, badiiy mahorat

Keywords:

Novel, portrait, image, hero, artistic skill

Ключевые слова:

Роман, портрет, изображение, герой, художественное мастерство

Kirish

Badiiy asarda qahramon xarakterini ochishda portret muhim badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi va ruhiy holatini aynan portet orqali ochib beradi. Shu jihatdan Asad Dilmurod ijodida portret tasviridan foydalanish mahorati alohida e’tiborga loyiq bo’lib, u tarixiy shaxslar obrazini badiiy jihatdan jonli va ishonarli tasvirlashga xizmat qiladi.

Portret – personajning so’z vositasida tasvirlangan tashqi ko’rishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko’z ifodalari, tana holati va harakatlari), o’quvchi tasavvurida jonlanadigan to’laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri. Portret epik asarning kompozitsion unsuri bo’lmish tavsifning bir ko’rinishidir. Shartli ravishda statik va dinamik portet turlari farqlanadi. Statik deyilishiga sabab shuki, portretning bu navida

personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to'xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi. Odatda, bunday portretlar personaj asar voqealigiga ilk bor kirib kelgan pallada beriladi. Dinamik portret deganda esa mufassal tasvir emas, balki voqea va dialoglar tasvirida, ya'ni harakat davomida berib boriluvchi personaj tashqi ko'rinishiga xos ayrim detallash nazarda tutiladi. Bunday portret detallari ko'proq remarkalardan joy oladi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi.¹

Asad Dilmurodning Mahmud Torobiy asarida Bo'rinayxonning kibrini, vahshiyliги va boyligini uning portreti orqali tasvirlaydi. "Jangovar ihota ichida qisiq ko'zlari mushukniki kabi yashil alanga sochayotgan Bo'rinayxon masrur-u mag'rur-xatardan xoli edi. Yassi betiga yoyilgan nim tabassum takabburona xayrixohlik bilan omuxta edi"². Bu yerda ko'zlar tasviri-ning yirtqich tabiatiga ishora. Bosh qahramon Mahmud Torobiyning portreti uning mardligi, tashqi salobati va o'limdan oldingi matonatini ko'rsatish uchun xizmat qilgan. Muallif uni "saman otli, pahlavon kelbatli, na'rasi yer-u ko'kni titratayotgan qora soqolli yigit" deya ta'riflaydi. Uning harakatlari orqali esa- "yiqit nayzador xalqasini bepisandlik bilan uzib tashlaganini"- nafaqat kuchli, balki matonatliginida bir karra isbotlaydi. Ijodkor faqatgina o'zi tarafdin emas, balki asar qahramonlari tomonidan ham portret berishni uddalagan. "Chig'atoy unga bir havas, bir hasad bilan tikildi va uni otam belini sindirayozgan Jaloliddindin al-so qolishmaydi, deya e'tirof etdi"³.

Badiiy asarda portret faqatgina qahramon qiyofasini ifodalab qolmay, uning ichki dunyosi va kechinmalarini ham o'quvchilarga ochib beruvchi muhim elementdir. Yozuvchi obrazlarni portret orqali tanishtiradi, bu orqali kitobxonni o'sha davr ijtimoiy va siyosiy hayotiga olib kiradi. Muhit hamda obrazlar orqali o'sha davr hayotiga munosabat ifodalanadi. Yozuvchi ayrim detallarga alohida urg'u berish orqali qahramonning ichki kechinmalarini yanada jonli tasvirlaydi. Natijada obraz o'quvchi xotirasida tirik va ishonarli qiyofada kashf etiladi. Bu esa asarni ta'sirchanligini kuchaytirib, badiiy qiymatini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarda portret tasviri muhim vazifani bajaradi. U qahramon xarakterini ochishda, davr ruhini ifodalashda va yozuvchining mahoratini ko'rsatishda alohida o'rin kasb etadi. Portret orqali yaratilgan obrazlar asarning g'oyaviy-badiiy qiymatini oshirib, o'quvchini voqealar ichiga olib kiradi. Shu bois ham adabiyotda portret muhim o'ringa ega.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. A.Dilmurod. Mahmud Torobiy: tarixiy roman // Mas'ul muharrir: T.Malik/. - T.: "Sharq", 1998. - 304 b.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. - T., Navoiy universiteti. 2018. - 480 b.
3. Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. - T., Akademik nashr. 2010. - 398 b.

¹Dilmurod Quronov, Zokirjon Mamajonov, Mashhura Sheraliyeva, Adabiyotshunoslik lug'ati / D. Quronovning umumiy tahriri ostida. - Toshkent: Akademi nashr, 2010 Yil. - 226 b

²Mahmud Torobiy: Tarixiy roman // Mas'ul muharrir: T.Malik/. - T.: "Sharq", 1998. - 9 b

³Mahmud Torobiy: Tarixiy roman // Mas'ul muharrir: T.Malik/. - T.: "Sharq", 1998. - 276b